

**ISAJON SULTONNING TARIXIY ROMANLARIDA POETIK
STRUKTURA VA BADIY TO'QIMA UYG'UNLIGI
(Ijodkor dunyoqarashi hamda ijodiy tamoyillar tanlovi)**

*Xolmuratova Moxira Egamberganovna,
UrDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
moxlaroyim19910220@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi Isajon Sultanning tarixiy romanlarida poetik struktura va badiiy to'qima uyg'unligi tahlil etiladi. O'zbek tarixiy-badiiy nasrida qadimgi turkiylar hayoti qalamga olingan asarlar juda kam. "Bilga xoqon" romani qadim ajdodlarimiz obrazini yaratish yo'lidagi dadil qadamlardir. "Bilga xoqon" romani – turkiy xalqlarning o'n uch asrdan narigi davrdagi qayg'ulari ifodasi. Yozuvchi toshbitiklar orqali yetib kelgan ma'lumotlarni roman matniga mohirlilik bilan singdirib yuborgan, qadimgi turk davridagi manzarani, qahramonlarning turkona tabiatini, hech narsadan tap tortmas botirligini saqlashga harakat qilgan. Asarda davr xususiyatiga ko'ra, arabcha va forsha so'zlar qo'llanilmagan, roman saf turkiy tilda yozilgan. Roman turk uluslarining birlik, qahramonlik, to'g'rilik, fidokorlik kabi muqaddas an'analaridan xabar beradi. Asarning birinchi bo'limi "Kichik yish" deb nomlangan, roman "Ko'gman tog'i etaklariga qish bola tashlagan, qor momoguldurak bilan yoqqan edi", – deya boshlanadi.

Kalit so'zlar. Ko'gman, xoqon, tamoyil, struktura, to'qima, estetik, tafakkur, konseptsiya, bitik.

**İSADJON SULTAN'IN TARİHSEL ROMANLARINDA ŞİİRSEL YAPI
VE SANATSAL DOKU ARASINDAKİ UYUM
(Yaratıcı dünya görüşü ve yaratıcı ilkelerin seçimi)**

*Kholmuratova Mokhira Egamberganovna,
UrSU Özbek dili ve edebiyati bölümünden bağımsız araştırmacı*

Özet. Makalede yazar Isajon Sultan'ın tarihi romanlarında şairsel yapı ile sanatsal dokunun uyumu incelenmektedir. Özbek tarih-sanat nesrinde eski Türklerin hayatını anlatan çok az eser bulunmaktadır. "Bilga Khakhan" romani kadim atalarımızın imajını yaratmaya yönelik cesur bir adımdır. "Bilga Kağan" romani on üçüncü yüzyılda Türk halklarının acılarının bir ifadesidir. Yazar, taş yazıtlarından aldığı bilgileri ustalıkla roman metnine aktarmış, eski Türk döneminin manzarasını, kahramanların Türk doğasını ve yılmaz kahramanlıklarını korumaya çalışmıştır. Eserde dönemin özelliklerine göre Arapça ve Farsça kelimeler kullanılmış, roman saf Türkçe yazılmıştır. Romanda Türk halkın birlilik, kahramanlık, doğruluk, fedakarlık gibi kutsal gelenekleri anlatılmaktadır. Eserin ilk bölümü "Kichik Yish" adını taşıyor, roman "Kış bir çocuğu Kogman Dağı'nın eteğine attı ve kar karla kaplandı" ile başlıyor.

Anahtar kelimeler. Kogman, kağan, ilke, yapı, doku, estetik, düşünce, kavram, yazı.

**ГАРМОНИЯ ПОЭТИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ И ХУДОЖЕСТВЕННОЙ
ФАКТУРЫ В ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНАХ ИСАДЖОНА СУЛТАНА
(Творческое мировоззрение и выбор творческих принципов)**

*Холмуратова Мохира Эгамбергановна,
научный сотрудник кафедры узбекского языка и литературы УрГУ*

Аннотация. В статье анализируется гармония поэтической структуры и художественной фактуры в исторических романах писателя Исаджона Султана. В

узбекской историко-художественной прозе очень мало произведений, в которых описан быт древних тюрков. Роман «Бильга хахан» — смелый шаг на пути к созданию образа наших древних предков. Роман «Бильга-каган» является выражением скорби тюркских народов в тринацатом веке. Писатель умело впитал в текст романа информацию, полученную через каменные надписи, постарался сохранить декорации древнетюркского периода, тюркскую природу героев, их неукротимый героизм. Согласно особенностям того времени, в произведении не использовались арабские и персидские слова, роман написан на чистом турецком языке. Роман рассказывает о священных традициях тюркских народов, таких как единство, героизм, праведность и самопожертвование. Первая часть произведения называется «Кичик йиши», роман начинается словами «Зима бросила ребенка у подножия горы Когман, и снег покрылся снегом».

Ключевые слова. Когман, каган, принцип, структура, ткань, эстетика, мышление, концепция, письмо.

THE HARMONY OF POETICAL STRUCTURE AND ARTISTIC FABRIC IN THE HISTORICAL NOVELS OF ISADJON SULTAN (Creative worldview and selection of creative principles)

*Kholmuratova Mokhira Egamberganovna,
independent researcher of the Department of uzbek language and literature, UrDU*

Abstract. The article analyzes the harmony of poetic structure and artistic texture in the historical novels of the writer Isajon Sultan. In Uzbek historical-artistic prose, there are very few works in which the life of the ancient Turks is written. The novel "Bilga Khakhan" is a bold step towards creating the image of our ancient ancestors. The novel "Bilga Khagan" is an expression of the sorrows of the Turkic peoples in the thirteenth century. The writer skilfully absorbed the information received through the stone inscriptions into the text of the novel, tried to preserve the scenery of the ancient Turkic period, the Turkic nature of the heroes, and their indomitable heroism. According to the characteristics of the time, Arabic and Persian words were not used in the work, the novel was written in pure Turkish. The novel informs about the sacred traditions of the Turkish peoples, such as unity, heroism, righteousness, and self-sacrifice. The first part of the work is called "Kichik Yish", the novel begins with "Winter threw a child at the foot of Kogman Mountain, and the snow was covered with snow."

Key words. Kogman, khagan, principle, structure, fabric, aesthetic, thinking, concept, writing.

Badiiy adabiyot so'z taraqqiyoti jarayonida tarixni, avlodlar bosib o'tgan davrning ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma"naviy dunyosini o'rganadi va undan saboq oladi. U o'tmishni bugungi hayot bilan taqqoslaydi. Adabiyotda yana bir muhim jihat borki, bu ham bo'lsa, memuar-biografiyalar yaratishdir. Shu bois biografiyada ijodkor asarlarini uning shaxsi, hayotiy kechinmalari bilan bir qatorda chuqur o'rganish maqsadga muvofiq. Yaqin-yaqingacha ilk madaniyat o'chog'i G'arbda, ya'ni Qadimgi Yunoniston va Rimda vujudga kelgan deb o'rganib kelingan. XIX asrga kelib esa bu qarashlar tubdan o'zgardi. Aynan shu davrda Mixxat sirlarining ochilishi aslida madaniyat Yunonistondan emas, Shummerlardan boshlanishini aniqlashdi. "Toir Eftinning Rossiyada amalga oshirgan, O'zbekistonda chop etilgan "Shumerlar va Etrusklar – insoniyat tamadduni ibtidosidagi qadimiy turkiylar" deb nomlangan tadqiqoti so'ngi yillarda yaratilgan va ayni shu masalaga ko'p jihatdan oydinlik kiritishi mumkin. 2012-yilda Toshkentda o'zbek olimi Zoir Ziyotovning "Shumerlar va Turon qavmlari" degan kitobi nashr etildi. Kitob bejiz bunday nomlanmagan. Unda bashariyatga tamaddun eshiklarini ilk ochgan shumerlar bilan Turon qavmlari o'rtasidagi aloqaga ishora qilinmoqda". So'nngi yillardagi tadqiqotlar Turkiy xalqlarning paydo bo'lishi juda uzoq vaqtga borib taqalishini ilmiy asoslaydi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi” [4,1b.] Turkiy xalqlarning buyuk ekanligini O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, bir necha bor xalqaro mukofotlar sovrindori Isajon Sulton ijodi orqali ko‘rib chiqamiz. Bugungi kunda biz o‘zbek romanchiligidagi mukammal tarixiy asarlar yaratilganligini kamdan-kam hollarda uchratishimiz mumkin. Chunki, tarixiy roman yozish yozuvchidan juda katta mehnat talab qiladi. “Raximjon Otauli qalamiga mansub “Bilga xoqon” dostonini nasrdagi Bilga xoqon obrazini yaratish yo‘lidagi ilk qadam bo‘lsa, Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani bu boradagi dadil qadam deya ta’kidlashga loyiqidir.” – degan edi, ustozimiz filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quranov.

Yozuvchi

Isajon

Sultonning “Bilga Xoqon” romani romani turkiy xalqlarning o‘tmishi haqida guvohlik beradigan asosiy manbalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu roman yozilishidan maqsad, yozuvchining turkiy xalqlarning naqadar buyuk va boy tarixiy xalq ekanligini butun dunyoga ko‘rsatish bo‘lgan. Xalqni o‘zligini tiklab berishga bo‘lgan ishonch yozuvchi uchun asarning yozilishiga turtki bo‘lgan. Ya’ni motiv vazifasini o‘tagan. “Motiv (motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg‘unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir”. [1,78b.] Asarda qahramon Bilga xoqon bilan yelkama-yelka turgan obrazlar asar mohiyatini ochib berishga katta xizmat qilgan. “Badiiy adabiyotda inson obrazini to‘laqonli yaratish, uni o‘quvchi ko‘z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bular muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiradi”. [1,74b.] Darhaqiqat, Turkiy xalqlarning ota-onasini hurmat qilishi qon qoniga singib ketgan. Buni yana bir misol bilan ham ko‘rshimiz mumkin. “To‘yqisdan O‘n o‘q ichidan munkillagan bir aba chiqib kelaverdi. Son-sanoqsiz qo‘sish qarshisida qaddi yoyday egik, bir o‘zi edi. Ikkala budun-da tek turardi...

Tizilib qoni qaynagan, erlari-yu otlarining og‘zidan hovuri chiqib turgan qo‘sish oldida cho‘l qushiday ko‘rindi. Ularning o‘rtasiga yetib kelib, shunqorday tizilgan otliqlar ko‘z o‘ngida yerga bir nimani tashladi.

– *I-ya! – dedi Ishbara hang-mang bo‘lib.*

– *Nima qildi? – deb so‘radi Bulut*

– *Hay yoziq, – dedi Ishbara.*

– *Endi urush bo‘lmaydi.*” [2,77b.]

Turkiy xalqlarda shunday qonun bor ediki, agar urush to‘g‘rilikcha bitmasa bir urug‘ vakillari bir-biri bilan kelisholmasa, yoshi ulug‘ ayollar o‘rtaga turib boshidagi yopinchig‘ini yerga tashlar edi. Buni bosib o‘tgani birorta bahodir botina ololmasdi. Buni yuqoridagi fikrlarimiz dalili desak bo‘ladi. Asar tarkibida ota-onaga bo‘lgan hurmatni juda ko‘p o‘rinlarda ko‘rshimiz mumkin. Bilga xoqon tuzga “Yasa”dagi bitta jumla bilan ham ko‘rsatsak bo‘ladi: “– Ota-enaga, dadaga bosh egilgaydir”. [2,117b.] Ijtimoiy voqelik, davr ruhiyati chigalligi, avvalo, odamzod ruhiy olamida bo‘y ko‘rsatadi. Iqtisodiy-madaniy, siyosiy-mafkuraviy kayfiyat zarblari qalbga yo`naladi, uning zarblariga ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy asar o`ta shaxsiy, shu barobarda, o`ta ijtimoiy mahsul bo`lganligi bois, zamon o`zgarushi, tafakkur yangilanayotgani unga ham o‘z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday evrilishlar, o`sishlar tasvir oynasi. Unda g‘oya taraqqiyoti, inson ongi va ma’naviyati o`sish tarixi, ijobiy yangiliklar kasb etish jarayoni kuzatiladi. Shunga ko‘ra, bir davrda yaratilgan qahramon ikkinchisidan farq qiladi, ijodkor yaratgan xarakter o`zga qiyofadan keskin tafovutlanadi. Biroq xarakter ruhiyati tasvirida o`ziga xoslik ustunki, joriy holatni adabiy mahoratga bog‘lash maqsadga muvofiq.

“Biga xoqon” romanining tub mohiyatini anglash uchun, avvalo, yozuvchi nima demoqchi ekanligiga e’tibor berish lozim. Yozuvchi “Bilga xoqon” romani orqali Turkiy xalqlarning o‘tmishini chiroyli usul bilan yoritib bergan. Asar tarixiy faktlar, ya’ni tosh bitiklar asosida yaratilganligi, uning ishonchli manba ekanligidan dalolat bermoqda. Asar yuqorida ko‘rib o‘tgamizdek faqatgina Turkiy xalqlarning o‘tmishini yoritib berish bilan chegaralanib qolmasdan, milliy urf-odatlar, an’analar va tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy

ta'siri bo'lmaydi" [3,1b.] Turkiy xalqlarning buyuk ekanligini O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, bir necha bor xalqaro mukofotlar sovrindori Isajon Sulton ijodi orqali ko'rib chiqamiz. Bugungi kunda biz o'zbek romanchiligidagi mukammal tarixiy asarlar yaratilganligini kamdan-kam hollarda uchratishimiz mumkin. Chunki, tarixiy roman yozish yozuvchidan juda katta mehnat talab qiladi. "Raximjon Otauli qalamiga mansub "Bilga xoqon" dostonini nasrdagi Bilga xoqon obrazini yaratish yo'lidagi ilk qadam bo'lsa, Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romani bu boradagi dadil qadam deya ta'kidlashga loyiqidir." – degan edi, ustozimiz filologiya fanlari doktori, psofessor Dilmurod Quranov. Yozuvchi Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" romani romani turkiy xalqlarning o'tmishi haqida guvohlik beradigan asosiy manbalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu roman yozilishidan maqsad, yozuvchining turkiy xalqlarning naqadar buyuk va boy tarixiy xalq ekanligini butun dunyoga ko'rsatish bo'lgan. Xalqni o'zligini tiklab berishga bo'lgan ishonch yozuvchi uchun asarning yozilishiga turtki bo'lgan. Ya'ni motiv vazifasini o'tagan. "Motiv (motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir". [1,78b.]

Asarda qahramon Bilga xoqon bilan yelkama-yelka turgan obrazlar asar mohiyatini ochib berishga katta xizmat qilgan. "Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiradi". [3,74b.] qadriyatlarida xabar beruvchi manba ekanligini ham ko'rishimiz mumkin. Yozuvchining asarda keltirgan ota-onaga mehr oqibatli bo'lish haqidagi qarashlarini hammamiz uchun dasturi amal vazifasini o'taydi deb hech ikkilanmasdan ayta olaman. Tom ma'noda bu asarni Turkiy xalqlarning o'tmishi, milliy ufr-odatlari va an'analaridan darak beruvchi eng ishonarli badiiy asar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dilmurod Quranov. "Adabiyotshunoslikka kirish". – Toshkent: "Noshir". 2019.
2. Isajon Sulton. Bilga xoqon. Toshkent. "Factor books". 2022.
3. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Toshkent. "Barkamol fayz mediya". 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha nutqidan.